XALQ DEPUTATLARI ZOMIN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 2-may VI-56-62-3-48-K/24 Zomin tumani

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi “Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash sohasiga xususiy sektorni jalb etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-232-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi “Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash sohasiga xususiy sektorni jalb etishga doir qo‘shimcha chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-232-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida bugungi kunda tumanimizda transport vositalarining soni kun sayin ortib borishi hamda zamon talablari asosida qurilayotgan va ta’mirlanayotgan avtomobil yo‘llari, tumandagi mavjud ko‘cha-yo‘l tarmoqlarida yo‘l harakatini boshqarish tizimlarining samarali ishlashini ta’minlash, yo‘l harakatini tartibga soluvchi zamonaviy texnik vositalarini joriy etishini taqazo etmoqda.

Jumladan, Zomin tumani Taraqqiyot MFY Ulug‘bek ko‘chasida joylashgan Zomin tibbiyot markazi binosi qarshisida tirbandliklar yuzaga kelib, transport vositalarining erkin harakatlanishiga halaqit berib, fuqarolarning haqli e’tirozlariga sabab bo‘layotganligi, shu ko‘chada transport vositalari yo‘lga noto‘g‘ri qo‘yib, tez tibbiy yordam avtomashinalari harakatiga xalaqit berayotganligi aniqlangan.

Shuningdek, Zomin tumani, Qayirma MFY, Mustaqillik ko‘chasida joylshagan tibbiyot texnikumi ro‘parasida o‘rnatilgan piyodalar o‘tish joyida transport vositalari egalari yo‘lning qatnov qismiga tashlab ketishi natijasida yo‘l qatnov qismini kesib o‘tayotgan piyodalarga hamda ushbu yo‘l bo‘ylab harakatlanayotgan transport vositalariga halaqit berib, fuqarolarning haqli e’tirozlariga sabab bo‘layotganligi aniqlangan.

Zomin tumani ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi boshlig‘i T.Jo‘rayevning tumanda yo‘l harakatini boshqarish tizimlarining samarali ishlashini ta’minlash bo‘yicha bergan takliflarini eshitib va muhokama qilib, 0’zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6 va 24- moddalariga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Zomin tumani ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi boshlig‘i T.Jo‘rayevning tumanda yo‘l harakatini boshqarish tizimlarining samarali ishlashini ta’minlash bo‘yicha bergan takliflari ma’qullansin.

2. Zomin tumani ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi boshlig‘i T.Jo‘rayevga Jizzax viloyati ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi bilan kelishgan holda Zomin tumani Taraqqiyot MFY Ulug‘bek ko‘chasida joylashgan Zomin tibbiyot markazi qabulxonasi va shoshilinch bo‘limi binolari oldiga, “Qayirma” mahallasi Mustaqillik ko‘chasida joylashgan tibbiyot texnikumi binosi oldiga “Yo‘l harakati qoidalari” dagi 3.27 (to‘xtash ta’qiqlanadi) hamda 7.2.2 va 7.3.3 (ta’sir oralig‘i) yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashi doimiy komissiyalari raislari hamda tuman hokimining o‘rinbosari Z.Omonqulov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



ABDUGANIYEV
ALISHER
MUXAMMADIYEVICH